


AVTOMOBIL TRANSPORTIDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINI QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI

*Toshkent davlat transport universiteti
Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti
IMTA-5 guruh talabasi
Mansurov Ardasher Azamat o‘g‘li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtomobil transportida Intellectual transport tizimlarini qo‘llanilishi va qo‘llash tartiblari va istiqbollari haqida so‘z boradi. Shu qatorda avtomobil transportida Intellectual transport tizimlarini qo‘llanilishi avtomobil transportida xavfsizlikni oshirishini, tezlikni, aniqlilikni va shu qator hozirgi kunda talabgorlik yuqori bo‘lgan barcha talablarni namoyon etishini ko‘rsatib beradi. Va hozirgi zamonaviy avtomobillarda Intellectual transport tizimlarini keng miqiyosda qo‘llanilayotganligi haqida ham so‘z boradi. Shu qatorda aytib o‘tish joizki, ushbu zamonaviy avtomobillarni :Intellectual xavfsiz avtomobil” deb ham atalib kelmoqda. Ushbu avtomobillarga hozirgi “JETOUR”, “CHERRY”, “BYD”, “KIA”, “MERCEDES-BENZ”, “BMW” kabi bir qator kompaniyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Avtomobil transporti, Intellectual transport tizimlari, xavfsizlik, tezlik, aniqlilik, avtobuslar, zamonaviy avtomobil, “Intellectual xavfsiz avtomobil”, “JETOUR”, “CHERRY”, “BYD”, “KIA”, “MERCEDES-BENZ”, “BMW”, “Climate Control”, “Curls Control”.

Ma’lumki hozirgi vaqtda dunyoda barcha sohalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Jumladan: iqtisodiyot, avtomobil transporti, temir yo‘l transporti, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va shu qator sohalar. Rivojlanish uchun asosiy bo‘g‘inlardan biri bu Intellectual tizimlarning barcha sohalariga kirib kelishi hisoblanadi. Shu qatorda avtomobil transporti sohalarida ham Intellectual transport tizimlari kirib keldi va jadallik bilan rivojlanmoqda.



Hozirgi kundagi ishlab chiqarilayotgan deyarli barcha avtomobillar, yo‘l qurilish mashinalari, jamoat transportlari (avtobuslar) va hakazolarda Intellectual transport tizimlari qo‘llanilmoqda. Intellectual transport tizimlarini qo‘llashning avzalliklari juda ham ko‘p

hisoblanadi. Jumladan aholining xavfsizligi, tinchligi va avtomobillarning shovqinsiz harakatlanishi va shu qator avzalliklar. Bu kabi avtomobillarga quyidagi avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarda ishlab chiqariladigan avtomobillarni misol qilish mumkin: “JETOUR”, “CHERRY”, “BYD”, “KIA”, “MERCEDES-BENZ”, “BMW” va shu kabilar. Ushbu avtomobillarda “START-STOP” tizimi, tezlikni nazorat qilish mexanizmlari, shu qatorda, yo‘l polosalari sezib undan chiqib ketmasdan harakatlanish, “Climate Control” kabi va yana “Curls Control” tizimlari shu qatorda yana ko‘plab xavfsizlikni va tezkorlikni, aniqlikni oshirib beruvchi mexanizmlar mavjud. Bu mexanizmlarning zamonaviy avtomobillarni ishlab chiqarishda va avtomobilning o‘zida qo‘llanilishi haydovchilar va piyodalarning havfsizligini ta’minlashda yordam beradi, shahar ekologiyasini yaxshilanishiga yordam beradi.



Zamonaviy avtomobillarda ko‘plab elektron tizimlar mavjud. Ular haydovchining hayotini yengillashtirish va uning xavfsizligini oshirishga mo‘ljallangan. Yangi haydovchi uchun bu barcha tormoz, ESP, 4WD va boshqalarni tushunish juda qiyin. Ushbu sahifada ushbu avtomobil tizimlari nomlarida ishlatilgan qisqartmalarning izohi hamda ularning qisqacha tavsifi berilgan. ABS, qulflashga qarshi tormoz tizimi. Avtotransport to‘xtatilganda g‘ildiraklarning qulflanishiga yo‘l qo‘ymaydi, bu uning barqarorligi va boshqarilishini saqlaydi. Hozir u zamonaviy avtomobillarning ko‘pchiligida qo‘llaniladi. Tormozning mavjudligi tajribaga ega bo‘lmagan haydovchiga g‘ildirak qulflanishining oldini olishga imkon beradi. ACC, Active Cornering Control, ba‘zan ACE, BCS, CATS. Kuzovning burchaklaridagi lateral holatini barqarorlashtirish uchun avtomatik tizim va ba‘zi hollarda suspenziyaning o‘zgaruvchan harakati. Bunda faol suspenziya elementlari katta rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://carzone.uz>
2. <https://www.qalampir.uz>
3. <https://docx.uz>
4. <https://daryo.uz>